



O'QITUVCHI MULOQOT XULQINING ICHKI FUNKSIONALLASHUVIDA OVOZNING O'RNI

Kaxarova Shohsanam

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8098351>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-June 2023 yil
Ma'qullandi: 28-June 2023 yil
Nashr qilindi: 30-June 2023 yil

KEY WORDS

kasb, pedagog, faoliyat, o'qituvchi, tarbiya, ovoz, nutq, auditoriya, nazorat, ijobiy munosabat, uslub, hurmat va hamfikrlik, kinoya, ritorik so'roq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'qituvchi nutqida ovozning o'rni, ovoz texnikasi bilan bog'liq ayrim qoidalar hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotda yuz beradigan muammolarga ovoz texnikasini to'g'ri tanlash orqali yechim topish haqida ma'lumot beriladi.

Bugungi kun taraqqiyoti barcha kasb vakillaridan zamon bilan hamnafas bo'lishni, texnika vositalaridan ustalik bilan foydalana olishni, kasbiy faoliyatiga aloqador eng kichik qoidalarga ham katta ahamiyat bilan qarashni taqazo etmoqda. Yuksak ma'suliyat talab etuvchi kasblar ichida avvalgi o'rinlarda turuvchi o'qituvchilik kasbida ham e'tibordan chetda qolgan har qanday kichik unsur katta xatoliklarga olib keladi. Biz ushbu maqolamizda kasbiy faoliyatlari davomida ayrim pedagoglar e'tiboridan chetda qolib kelayotgan ovozning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va vazifalari haqida batafsil so'z yuritmoqchimiz.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning qator usullari, yo'nalishlari mavjud. Shunga qaramay ba'zida biz ta'lim va tarbiyada ovoz va uning ahamiyati, ovozni boshqarish usullari kabi o'qituvchilar mahoratini belgilab beruvchi mezonlarga e'tiborsizlik bilan qaraymiz.

Ovoz texnikasidan mukammal darajada foydalanilganda o'quvchilar bilan o'zaro muloqotda yuz beradigan muammolar bartaraf etiladi. O'qituvching yoqimli, tushunarli ovozi tabiiy ravishda, ular dunyoga kelgan vaqtda beriladi degan qarash butunlay noto'g'ri. Ma'lumki, mashhur notiq Demosfenning nutqida ham dastlab katta kamchiliklar bo'lib, tinimsiz izlanishlar va amaliy mashqalar yordamida notiqlik san'atini mukammal egalagan shaxs sifatida tarixda qolgan. Shu sababli, o'quvchilarni o'ziga jalb qila oladigan, fikrlarni tushunarli yetkazib berishga xizmat qiladigan ovozni shakllantirish uzoq muddatli mehnatni, amaliyotni talab qiladi. Nutqda ovozning ahamiyati haqida tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Aytaylik, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yoqimli bo'lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan "libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad -

muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim." [1:178]

Auditoriyani nazorat qilish va o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishda amal qilinishi zarur bo'lgan ovoz bilan bog'liq ayrim qoidalarni tahlil qilamiz:

1. Diqqatni jalb qilish uchun ovozdan foydalanish – o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga qaratish uchun baland ovozda gapirish yoki auditoriyadagilarning shovqini to'xtatishini kutish muammoning yechimi hisoblanmaydi. O'quvchilar diqqat markazini darsga jalb qilish uchun eng sodda texnika bu nutqni "Uch, ikki, bir." sanog'idan boshlashdir. Bu so'zlar kombinatsiyasidan so'ng o'quvchilar o'qituvchining maqsadini anglagan holda diqqatlarini so'zlovchiga qaratadilar. Pedagogning odatiy nutq so'zlash uslubi baland ovozdan holi bo'lishi diqqatni jalb qilish maqsadida ishlatilgan yuqori tempdagi ovozdan farqli bo'lishiga zamin yaratadi.

2. Ovozning balandligini to'g'ri tanlash – odatda, o'qituvchilar o'quvchilarni darsga quloq solishlari uchun baland ovozdan foydalanish kerak deb hisoblaydilar. Misol tariqasida Sadridin Ayniyning "Eski maktab" asaridagi quyidagi parchani keltiramiz:

"Domla "gunohkor" bolalarning otlarini eshitib bo'lgandan keyin:

Jim bo'linglar! – deb baqirdi.

Bolalarning barisi o'qishdan to'xtadi." [2:11]

Bizning fikrimizcha, baland ovoz o'quvchilar shovqiniga qo'shimcha shovqin qo'shishdan boshqa vazifa bajarmaydi yoki bir necha soniyalik jimlikni taminlab berish bilan kifoyalanadi. Aksincha, nutqda ovoz tonining past bo'lishi, tempni sekin boshlanib asta sekin ko'tarilishi o'quvchilar diqqatini nutqqa qaratishdagi eng maqbul usuldir.

3. Nutq uslubini tahlil qilish – o'quvchilarga hurmat ohangida murojaat qilish, tinglovchiga ham huddi shunday javob qaytarilishini ta'minlaydi. O'zaro hurmat va hamfikrlikka asoslangan muloqot nafaqat o'qitish jarayonida, balki har qanday muloqot turida ham o'zining ijobiy natijasini beradi. Hattoki, salbiy vaziyatlar, noto'g'ri ish-harakatlar haqida gapirganda ham ovozning yoqimli ohangda bo'lishi, gap mazmunini xushmuomalalik bilan yetkazish zarur. O'qituvchilarning auditoriyani boshqarishda yo'l qo'yadigan kamchiliklardan eng ko'p kuzatiladigan 3 turi mavjud bo'lib, ular:

a) nutqda istehzo (kinoya)dan foydalanish – ta'lim auditoriyasini kichik yoshdagi o'quvchilar tashkil qilganda, ular o'qituvchi nutqida qo'llanilgan kinoyani tushunmaydilar. Natijada ularning ongida chalkashlik yuzaga keladi. Nutqda berilgan navbatdagi ma'lumotlar ham ularning fikrida ana shunday g'alizlikka sabab bo'ladi. O'rganuvchilar auditoriyasi katta yoshdagilarni tashkil qilganda esa, nutqda qo'llangan har qanday kinoya ularga psixologik zarba beradi. Natijada sinfda ma'lumotlarni qabul qilishdagi norozilik kayfiyati yuzaga keladi.

b) ritorik so'roqlardan foydalanish – nutqda bu kabi so'roqlardan foydalanish o'rganuvchilarda vaziyatni to'liq tushunmaslik holatini yuzaga keltiradi. YA'ni, ritorik so'roq gaplar umumiy bo'lib, ular aynan bir tinglovchiga qaratilmaydi va aniq javob talab qilmaydi. Shu sababli o'rganuvchilar ongida mavhumlik tushunchasi paydo bo'ladi.

Masalan, o'qituvchi tomonidan berilgan "Kimdir gapiryabdimi?" so'rog'iga auditoriya jimlik bilan javob qaytarishi mumkin.

c) barcha o'rganuvchilar oldida aynan bir yoki ikki kishiga tanbeh berish – aksariyat holatlarda dars jarayonida o'zining notog'ri xatti-harakati bilan o'qituvchi e'tiborini tortgan

o'quvchini tartibga chaqirish uchun past ovoz va muloyimlik o'rniga baland ovoz hamda qo'pollik bilan aytilgan so'zlardan foydalaniladi. Natijada, tanbeh eshitgan o'quvchida o'qituvchiga va u orqali fanga bo'lgan qiziqish yo'qoladi, salbiy xatti-harakatlar soni yanada ko'payadi. Butun auditoriyaga o'quvchining xatosini aytgandan ko'ra, ular bilan alohida suhbat qurish, kamchiliklariga do'stona yechim topish yaxshiroq samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. "O'qituvchi nutqi madaniyati" – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2007.
2. Sadridin Ayniy. "Eski maktab" – Yosh gvardiya nashriyoti. Toshkent - 1982.
3. Kakharova, S. (2022). Speech as a Tool of Pedagogical Activity of the Teachers. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(11), 61-64.
4. Sh, K., & Akramova, F. (2022). Unnatives Speak as Innatives. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 116-120.
5. Kakharova, S. (2022). Culture of Communicative Interaction between Teachers and Students during Pedagogical Cooperation. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 96-98.
6. Sh, K., & Jurayeva, S. (2022). Drawing As a Means of Understanding Difficult Concepts. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 121-124.
7. TASNIFI, A. Sh. N. Kaxarova–Farg 'ona davlat universiteti ingliz tili o'qituvchisi SHAXSLARARO MULOQOT XULQINING MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARI. FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 416.
8. Kakharov, K., & Olimov, M. (2023). GERMAN IDIOMATIC EXPRESSIONS: UNVEILING THE ETIQUETTE OF SPEECH. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 604-606.
9. Kaxarov, Q., & Usmanova, F. (2023). NEMIS TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARNING O 'ZIGA XOSLIKLARI VA ULARNI O 'ZBEK TILI BILAN TAQQOSLASH. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 148-151.
10. Kakharov, K. (2023). FORMS OF GREETING AND ADDRESS IN THE UZBEK AND GERMAN PEOPLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 635-637.